

## MOLIYA MEXANIZMI MOHIYATI VA USLUBLARI

*Norqulova Shahzoda*

*Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiy kategoriyada muhim o`rin tutgan moliya mexanizmi haqida batafsil yoritib berilgan. Bundan tashqari moliya kategoriyasining munosabatlar doirasida amal qilishi uchun moliyaviy mexanizmning tarkibini tashkil etadigan kichik mexanizmlar hamda moliya mexanizmining uslublari atroflicha ma`lumot berilgan.

**Kalit so`zlar:** Iqtisodiy kategoriya, milliy iqtisodiyot, davlat, narx, soliq, kredit stavkalari, dotatsiya, iqtisodiy siyosat, moliyaviy elementlar, moliyalashtirish, moliyaviy resurslar, moliya mexanizmi uslublari.

**Аннотация:** В данной статье подробно описан финансовый механизм, занимающий важное место в экономической категории. Кроме того, дается подробная информация о мелких механизмах, входящих в состав финансового механизма, и методах финансового механизма для того, чтобы финансовая категория была действительна в рамках отношений.

**Ключевые слова:** Экономическая категория, национальная экономика, государство, цена, налог, кредитные ставки, субсидия, экономическая политика, финансовые элементы, финансирование, финансовые ресурсы, методы финансового механизма.

**Abstract:** This article describes in detail the financial mechanism, which has an important place in the economic category. In addition, detailed information is given on the small mechanisms that make up the composition of the financial mechanism and the methods of the financial mechanism in order for the financial category to be valid within the framework of relations.


**Key words:** Economic category, national economy, state, price, tax, credit rates, subsidy, economic policy, financial elements, financing, financial resources, methods of financial mechanism.

Xar qanday iqtisodiy kategoriyalar o`z mexanizmlariga ega bo`ladi. Iqtisodiy kategoriyalarning mexanizmlari esa ushbu kategoriyaning ichki mohiyati, uning iqtisodiy munosabatlar doirasida tutgan o`rni, milliy iqtisodiyotning qaysi tizimiga asoslanganligiga bog`liq bo`ladi. Bundan tashqari shunday iqtisodiy kategoriyalar borki, ularning amal qilish mexanizmlari davlatning faoliyati va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga bog`liq bo`ladi. Masalan, narx, soliq, dotatsiya, kredit stavkalari va shu kabilar asosan davlatning iqtisodiy siyosatidan kelib chiqib, ularning munosabatlari belgilanadi.

Moliya kategoriyasining amal qilishi o`z-o`zidan sodir bo`lmaydi, bu esa qandaydir harakatga keltiruvchi va uning doimo harakatda bo`lishini ta`minlovchi tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va normative metodlarni talab qiladi. Bular bir

maqsadda birlashib moliyanig ishlashini ta`minlaydi va uning mexanizmlari sifatida amal qiladi. Shu tarafdan olganda, moliyaviy mexanizm deganda moliyaviy munosabatlarni tashkil etish, yo`lga qo`yish, pul fondlarining moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash, shuningdek, moliyaviy munosabatlarda qo`llaniladigan moliyaviy elementlar va instrumentlarning turli shakl va metodlari yig`indisi tushuniladi. Demak, moliyaviy mexanizmlarni tashkil etishning turli xil shakllarini moliyaviy mexanizm deb atasak bo`ladi. Davlatning faoliyatini moliyalashtirishning moddiy asosi bo`lgan markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va undan foydalanishda turli xil moliyaviy elementlar xizmat qiladi, ularni qilmasdan turib ularni qo`llamasdan turib, moliyaviy resurslarni shakllantirib bo`lmaydi, shuningdek, ushbu moliyaviy elementlarni qo`llashni tashkiliy uslublari zarur bo`ladi, buning uchun esa moliyaviy instrumentlardan foydalangan holda moliyalashtirish amalga oshiriladi. Ushbu butunlik esa o`zaro birlashib moliyaviy mexanizmlar shaklida amal qiladi. Agar, moliyaviy mexanizmlarning mohiyatini uning tarkibi jihatidan qaraydigan bo`lsak, u quyidagilardan iborat:

## Moliya mexanizmi



Demak, tarkibiy jihatdan qaraganda, yuqorida aytib o`tilgan moliyaviy mexanizmning tarkibini tashkil etadigan kichik mexanizmlar zarur bo`lar ekan, bularsiz moliyaviy munosabatlarning to`liq amal qilishini ta`minlab bo`lmaydi. Moliyaviy mexanizmning asosini moliyaviy munosabatlarni tashkil etish uslublari tashkil qiladi.

Xulosa qilish mumkinki, moliyaviy mexanizmi bu samarali moliyaviy munosabatlarni o'rnatish va mablag'larni yaratish maqsadida ichki moliyani boshqarish tizimidir. Buni korxona misolida tahlil qiladigan bo`lsak, ushbu tizim tashkilotning ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyatining yakuniy natijalariga ta'sir qiladi, uning sherik tuzilmalari va iste'molchilari bilan bo'lgan pul munosabatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, ma'lum bir korxonaning moliyaviy mexanizmi uning mahalliy normativ hujjatlariga, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan qonun hujjatlariga asoslanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Korxonaning Moliyaviy Mexanizmi Va Uning Elementlari | Moliya 2024 (periodicalfinance.com). Video. 2024.
2. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich. Moliya va soliqlar. O`quv qo'llanma. Toshkent – 2020.
3. Vahobov.A va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T. Sharq. 2005-yil.
4. Moliya siyosati va moliya mexanizmi (arxiv.uz).
5. G'afurov U.V. O'zbekistonda kichik biznes tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishning asosiyo yo'nalishlari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2018 yil.